

VOYAGA YETMAGAN YOSHLARNI IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

O`zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Abdugaffarova Nigina

Anotatsiya: *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-psixologik muammolari hamda ularga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Unda oilaviy muhit, ijtimoiy atrof-muhit, tengdoshlar ta'siri va zamonaviy axborot texnologiyalarining o'smirlar rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, ko'plab yoshlar o'smirlik davrida duch keladigan psixologik qiyinchiliklar ham muhokama qilinadi. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlar orasida uchraydigan deviant xulq-atvorning ayrim sabablari ham o'rganiladi. Tadqiqot o'smirlarning jamiyatga moslashishiga yordam berish va ularga zarur ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash ko'rsatish muhimligini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar bilan ishlash jarayonida ijtimoiy-pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Voyaga yetmagan yoshlar, o'smirlik davri, ijtimoiy-psixologik muammolar, ijtimoiy muhit, oilaviy muhit, psixologik rivojlanish, shaxs shakllanishi, deviant xulq-atvor.*

Аннотация: *Данная статья рассматривает социально-психологические проблемы несовершеннолетних и факторы, влияющие на них. В работе анализируется влияние семейной среды, социального окружения, сверстников и современных информационных технологий на развитие подростков. Также рассматриваются психологические трудности, с которыми сталкиваются многие молодые люди в подростковом возрасте.*

Кроме того, в статье исследуются некоторые причины девиантного поведения среди несовершеннолетних. В исследовании подчеркивается важность оказания помощи подросткам в их социальной адаптации и обеспечения надлежащей социально-психологической поддержки.

Результаты показывают, что при работе с молодежью важно применять социально-педагогические и психологические подходы.

Ключевые слова: *Несовершеннолетние, подростковый возраст, социально-психологические проблемы, социальная среда, семейная среда, психологическое развитие.*

Abstract: *This article examines the socio-psychological problems of minors and the factors that influence them. It examines how family environment, social surroundings, peer influence, and modern information technologies affect the development of adolescents. The article also discusses the psychological difficulties that many young people face during adolescence. In addition, it looks at some reasons for deviant behavior among minors. The study highlights the importance of helping adolescents adapt to society and providing them*

with proper socio-psychological support. The results show that it is important to use socio-pedagogical and psychological approaches when working with young people.

Keywords: *Minors, adolescence, socio-psychological problems, social environment, family environment, psychological development, personality formation, deviant behavior.*

“Tarbiyali yosh – millatning kelajagi.” Bu fikr o‘zbek ziyolisi Abdulla Avloniyga tegishli bo‘lib, yoshlar tarbiyasining millat va jamiyat rivojida tutgan o‘rnini mukammal ifodalaydi. Avloniy ta’kidlaganidek, tarbiya nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Uning fikricha, tarbiyalangan va ma’naviy yetuk yosh avlod – bu millatning kelajagi, uning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyoti uchun poydevordir.

Voyaga yetmagan yoshlar - bu o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar bo‘lib, ular hali to‘liq jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanmagan, shuning uchun qonun va jamiyat tomonidan alohida himoya qilinadi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada, “o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan har bir inson zoti, agar ushbu bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qonunga ko‘ra u ertaroq voyaga yetmagan bo‘lsa, bola hisoblanadi.”³² Bolaning himoya qilinishi va uyg‘un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an‘analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olinib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e’tirof etilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar va o‘smirlar davri nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham murakkab bosqich hisoblanadi. Yoshlar bu davrda oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, jamiyatning ijtimoiy nazorati va zamonaviy axborot texnologiyalari ta’sirida o‘sadi. Shu sababli, ularning ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini ta’minlash tarbiyaviy jarayonning eng muhim maqsadlaridan biri sifatida qaraladi.³³

Sharq olimlari va mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, Farobiy, Imom G‘azzoliy va Abu Rayhon Beruniy, yoshlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida oilaviy va ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida ta’kidlaganlar. Ularning fikricha, tarbiya jarayoni shaxsni ijtimoiy moslashuvchan, axloqiy jihatdan barqaror va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, yoshlarning xulqidagi og‘ishlarni oldini olishda ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlashning roli katta ahamiyatga ega.³⁴

Bugungi kunda, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlashda tizimli yondashuvlarni qo‘llash zarurati yuzaga kelgan: bu – ijtimoiy-pedagogik metodlar, psixologik maslahatlar, oilaviy va maktab muhitidagi monitoring va profilaktika ishlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, tarbiya

³² “Bola huquqlari” to‘g‘risidagi konvensiyasi, (20-noyabr 1989-yil)

³³ Avloniy, A. (1910). Tarbiyaviy asarlar. Toshkent: Matbuot uyi.

³⁴ Sharq mutafakkirlari — Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom G‘azzoliy va Abu Rayhon Beruniy asarlarida shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi keng yoritilgan.

jarayoni nafaqat yoshlarning bilimni oshirish, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, psixologik barqarorligi va jamiyatga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan eng muhim vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanchalik bilimli va har tomonlama rivojlanganligiga bevosita bog'liq. Bizning maqsadimiz — Yangi O'zbekiston yoshlarini keng dunyoqarashga va ijodiy tafakkurga ega, Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor barkamol shaxslar etib tarbiyalashdir"³⁵ Har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanchalik bilimli, ma'naviy barkamol va har tomonlama rivojlanganligiga bevosita bog'liqdir. Chunki aynan yoshlar kelajakda davlatning ilm-fani, iqtisodiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayotini rivojlantiradigan asosiy kuch hisoblanadi. Agar yoshlar zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli bo'lsa, jamiyat ham barqaror va taraqqiy etgan bo'ladi. Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, ma'naviy jihatdan kamol topishi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarni tarbiyalashda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, yangicha fikrlashga o'rgatish va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat bilim, balki yangilik yaratish qobiliyati, muammolarga ijobiy yondashish va mustaqil qaror qabul qilish ham muhimdir. Shunday yoshlar jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qiladigan, yangi g'oyalar bilan chiqadigan kuchga aylanadi. Bundan tashqari, yoshlarni Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni his qiladigan shaxslar etib tarbiyalash ham muhim vazifadir. Yosh avlod o'z yurti tarixini, qadriyatlarini va milliy an'analarini hurmat qilishi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi lozim. Vatan ravnaqi va xalq farovonligi aynan yoshlarning bilimiga, intilishiga va fidoyiligiga bog'liq. Shu sababli bugungi kunda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga sifatli ta'lim berish, iste'dodini rivojlantirish uchun sharoit yaratish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Barkamol, bilimli va vatanparvar yoshlar esa kelajakda jamiyatni yanada rivojlantirib, mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi.

Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi qator omillar mavjud. Jumladan:

1. Biologik omillar, ya'ni bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini

murakkablashtiruvchi nohush fiziologik va anatomik holatlar: Ularga:

- psixofiziologik (ya'ni inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, somatik harakatlarni, allergiyalar va toksik kasalliklarni vujudga keltiruvchi turli xil ziddiyatlar, kimyoviy moddalar, energiyalar va h. k),
- fiziologik (atrofdagilarda nohush kayfiyat uyg'otuvchi tashqi qiyofa, tilning duduqligi va h.k.)

2. Psixologik omillar, ya'ni insondagi psixopotologik yoki aksentuant

(haddan tashqari) holatlar. Bu omillar asab kasalliklari (psixopatiya, nevrasteniya

³⁵ Shavkat Mirziyoyev: "Our goal is for young people in the new Uzbekistan to be harmoniously developed individuals" (2021)

kabi kasalliklardir)

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar, ya'ni bolalik davridan boshlab maktab, oila va jamoatchilik tarbiyasidagi nuqsonlar.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni bu jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikdir: jamiyatning boylar va kambag'allar deb ajratilishi, oylik maoshining kamligi, ishsizlik, inflyasiya va h.k.

5. Ma'naviy-axloqiy omillar. Ularga birinchidan, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarning qadrsizlanishi, insonlarning ma'naviy qashshoqlanishi kirsam, ikkinchidan, muayyan jamiyatning undagi ro'y berayotgan deviant harakatlarga

befarqlik, loqaydlik kiradi. Undan tashqari, voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant xulq-atvorning oldini olish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu ishning maqsadi yoshlarning deviant xulq-atvorini aniqlash va uni kamaytirish yo'llarini o'rganishdir. Emile Durkgeym fikricha, "Deviant xulq-atvor - bu guruh yoki jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar va kutishlarga zid bo'lgan xulq-atvordir."³⁶

Deviant xatti-harakatdagi bolalar va o'smirlarga nisbatan profilaktika, reabilitatsiya va korreksiya ishlari amalga oshiriladi.

- Reabilitatsiya – bu bola shaxsining huquqi, huquqiy status, sog'ligi, ishga layoqatsizligini tiklashga qaratilgan kompleks, ko'p darajali, bosqichli va dinamik tizimdir. U profilaktika va korreksiya singari aspektlarni o'z ichiga oladi.

- Profilaktika – bu reabilitatsiya tizimidagi shaxsning rivojlanishidagi u yoki bu chekinishlarni yo'qotishga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlardir. U ko'proq ijtimoiy muhit bilan bog'liqdir.

- Korreksiya – bu hayotiy chekinishlarga uchragan bolalar va o'smirlar bilan olib boriladigan aniq faoliyat hisoblanadi³⁷ Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant harakatlarni vujudga keltiruvchi omillar - bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlarga zid xulq-atvorni shakllantirishiga olib keluvchi murakkab va o'zaro bog'liq sabablar tizimidir. Ushbu omillar qatoriga oiladagi nosog'lom muhit, tarbiya kamchiliklari, ota-ona nazoratining sustligi, shuningdek, yoshlarning individual psixologik xususiyatlari - emotsional beqarorlik, stress, o'zini namoyon etish ehtiyoji va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kiradi.

Bundan tashqari, maktab va ta'lim muhitidagi muammolar, tengdoshlar ta'siri, salbiy ijtimoiy guruhlar, ommaviy axborot vositalari va internetning nazoratsiz ta'siri ham deviant xulq-atvor shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan, moddiy yetishmovchilik, oilaviy muammolar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklar ham bu jarayonni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Natijada, ushbu omillarning o'zaro ta'siri voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiylashuv jarayonini izdan chiqarib, uning xulqida turli og'ishlar-huquqbuzarlik, tajovuzkorlik, beparvolik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Voyaga

³⁶ Emile Durkheim, *Suicide: A Study in Sociology* (1897)

³⁷ Ganiyeva M.X., Latipova N.M., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M. Bolalar va yoshlar Ijtimoiy ta'minoti va himoyasi. O'quv qo'llanma.

yetmaganlarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning yoshiga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish, voyaga yetmaganlarga tibbiy-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ijtimoiy jihatdan og'ir ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha yakka tartibdagi profilaktika ishlarini tashkil etish.³⁸ O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 79-80-moddalarida ta'riflanishicha: 79-modda. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu moddada, yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. Shu jumladan, yoshlar uchun ta'lim olish, sog'liqni saqlash, uy-joy, ishga joylashish, bandlik va dam olish kabi huquqlarni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini ta'kidlaydi. Davlat yoshlarning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishini ta'minlaydi, ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va mehnat bozorida samarali ishtirokini rag'batlantiradi. 80-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Bu modda orqali, davlat yoshlarning nafaqat o'z huquqlarini amalga oshirishini, balki ota-onaga bo'lgan burchlarini ham bajarishini ta'minlaydi. Bu, bir tomondan, oilaning barqarorligini saqlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, voyaga yetgan shaxslarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiradi.³⁹ Erik Erikson "Psixosozial rivojlanish nazariyasi" da,

"Voyaga yetmagan yoshda shaxs identifikatsiyani topadi, ijtimoiy aloqalar orqali o'z o'rnini aniqlaydi. Agar bu bosqichda cheklovlar yoki stresslar bo'lsa, ular emotsional muammolarni keltirib chiqaradi".⁴⁰ Erik Eriksonning nazariyasiga ko'ra, voyaga yetmagan yoshlar hayotining har bir bosqichi psixosozial rivojlanish jarayoni bilan bog'liq. Bu davrda shaxs o'z identifikatsiyasini (shaxsiyligini) shakllantiradi va ijtimoiy aloqalar orqali jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlaydi. Agar yoshlarning bu rivojlanish bosqichida stress, oilaviy yoki maktabdagi muammolar mavjud bo'lsa, ular emotsional beqarorlik, xavotir va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, yoshlarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun oilaviy e'tibor, do'stona muhit va psixologik yordam muhim hisoblanadi.

³⁸ Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 79-80-moddalar.(30-aprel 2023-yil)

⁴⁰ Erikson, E. H. (1950). *Childhood and Society*. Norton.

Xulosa qilib aytganda, Voyaga yetmagan yoshlar, jamiyatning eng himoyalaniishi zarur bo'lgan va o'sib borayotgan a'zolari bo'lib, ularning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi ularning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yoshlar ko'pincha hayotiy, ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan o'zini ifoda etishda muammolar, stress, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va ba'zan deviant xulq-atvor. Ularning muammolari ko'pincha oilaviy sharoit, ta'lim tizimi, tengdoshlar va kengroq jamiyat muhiti bilan bog'liq bo'ladi. Sifatli ta'lim, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit, oilaviy barqarorlik va ruhiy yordam voyaga yetmagan yoshlarning sog'lom rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Xalqaro huquqiy normalar va siyosiy chora-tadbirlar voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, ularni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan saqlash, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy va psixologik barqarorligini ta'minlash ularning shaxs sifatida to'liq rivojlanishi, jamiyatda faol va mas'uliyatli a'zo bo'lib yetishishida asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILVGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Bola huquqlari" to'g'risidagi konvensiyasi, (20-noyabr 1989-yil)
2. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son
3. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 79-80-moddalar. (30-aprel 2023-yil)
4. Avloniy, A. (1910). Tarbiyaviy asarlar. Toshkent: Matbuot uyi.
5. Shavkat Mirziyoyev: "Our goal is for Young People in the New Uzbekistan To Be Harmoniously Developed Individuals" (2021)
6. Sharq mutafakkirlari — Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom G'azzoliy va Abu Rayhon Beruniy asarlari (shaxs tarbiyasi va uning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi).
7. Emile Durkheim, Suicide: A Study in Sociology (1897)
8. Ganiyeva M.X., Latipova N.M., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M. Bolalar va yoshlar Ijtimoiy ta'minoti va himoyasi. O'quv qo'llanma.
9. Erikson, E. H. (1950). Childhood and Society. Norton.